

**TOSHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV ZAFAR ISMAILOVICH

**O‘ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI
SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ibragimov Zafar Ismailovich

О‘zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni
takomillashtirish 3

Ибрагимов Зафар Исмаилович

Совершенствование налогообложения доходов физических лиц в
Узбекистане..... 29

Ibragimov Zafar Ismailovich

Improving the Taxation of personal income in Uzbekistan..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 63

**TOSHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV ZAFAR ISMAILOVICH

**O‘ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI
SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4435 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	Bezorov Akmal Amonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar	Burxanov Aktam Usmonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Pardayev Umid Uralovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.03/2025.27.12.130.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "6" 06 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7 uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "15" 05 kuni tarqatildi.
(2026-yil "04" 04 dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X.Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.X.Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
dotsent

D.A.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi asosiy omillaridan biri sifatida turli darajadagi davlat budjeti moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda davlat budjeti daromad manbalari sifatida jismoniy shaxslarning daromadlari va ko'chmas mulklari uchun to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Jumladan, "jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budjet daromadlari tarkibidagi ulushi AQShda 35,9 foiz, Germaniyada 35,1 foiz, Rossiya Federatsiyasida 30,4 foiz, Buyuk Britaniyada 25,8 foiz, Xitoyda 6,9 foizni tashkil etmoqda"¹. Budjet daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining barqarorligi, yig'iluvchanligi va budjetga undirilishini tartibga solish orqali iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashtirish sharoitida rivojlangan davlatlarda jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish, daromad solig'i stavkasini pasaytirish, bu borada soliq solinmaydigan minimumning qo'llanilishi orqali aholining real daromadini oshirish, shuningdek jismoniy shaxslarning ko'chmas mulklarini soliqqa tortish borasida mulklarning bozor qiymatini aniqlash va soliq solinadigan bazani muvofiqlashtirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Jahon iqtisodiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, raqamli iqtisodiyot ko'lami kengayib borayotgan hozirgi vaqtda qulay soliq muhitini yaratish, soliq yukini optimallashtirish, soliqqa tortishni soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligi shaffofligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, samarali soliq-budjet siyosatini tashkil etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlarini elektron hisobini to'liq yuritish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini rivojlantirishda samarali soliq rejimlaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda ham oxirgi yillarda soliq siyosatini takomillashtirish orqali "yashirin iqtisodiyot"ning ulushini kamaytirish, "fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtda to'lashdan manfaatdor bo'lishi"²da ish haqi va daromadlarning elektron hisobini yuritishga o'tish, daromad solig'i bo'yicha qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining samaradorligini yanada oshirish hamda jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga soliq solish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda aholining 15,1 millionga yaqini yoki 42,1 foizdan ortiq qismi iqtisodiy faol aholi hisoblanib, ularning 5,1 milliondan ortiq (33,8 %) qismi daromad solig'ini to'lovchilari

¹ Manba: Дементьева М.А., Захарова А.В., Кирова Е.А., 2019. Опыт налогообложения недвижимого имущества физических лиц в зарубежных странах и его применение в России. Статья доступна по лицензии Creative Commons «Attribution» («Атрибуция») 4.0. всемирная (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>); http://www.vectoreconomy.ru/images/publications/2017/10/taxes/Shobey_Kovarnina.pdf.

² Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 17-bet.

hisoblanadi. Mazkur raqamlar aholining bandligini ta'minlash, ularning to'liq va o'z vaqtida hisobini yuritish, natijada aholining real daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish kabi yo'nalishlarda masalalarga e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda munosib uslublardan foydalanilmayotganligi, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortish borasida anglashilmovchiliklarning mavjudligi, shuningdek soliq qarzdorligining ortib borayotganligi, soliq yukining aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tekis taqsimlanishi ta'minlanmayotganligi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-uillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-sonli, 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli, 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-sonli, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli, 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli, 2022-yil 26-iyulda O'RQ-785-sonli, 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli, 2021-yil 21 aprelda O'RQ-683-sonli Qonunlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu diceratsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish masalalariga oid mulohazalar xorijlik iqtisodchilar A.Smit, D.Rikardo, G.Buehler, L.Harley, A.Walter, F.Ramsey, J.Mirrlees, E.Sheshinski, E.Sadka, N.Stern, J.Seade, R.Burdescu, M.Allingham, A.Sandmo, M.Norregaard, H.Blochliker., E.Slack, A.Agapova, M.Romanovskiy, O.Vrublevskaya, B.Sabanti, V.Lapin, S.Pavlenko, G.Morozova, A.Sbejnev, A.Galyautdinova, O.Savina, Ye.Ermasova, O.Izotova, A.Aksenovalarning ilmiy ishlarida yoritilgan³.

³Smit A. Исследование о природе и причинах богатство народов /Антология экономической классик. Предисл. И.Столярова. – М.: МП "ЭКОНОВ", "КЛЮЧ", 1993. -588 с., Рикардо Д. Сочинения. Т1. Начало политэкономии и налогового обложения. Пер. с англ. –М.: Госполитиздат. 1955. – 186 с., "Taxation and the minimum of subsistence" Source: The American Economic Review, Vol. 23, No. 2 (Jun., 1933), pp. 234-244. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/253>, Harley L. Lutz «The privilege of personal income taxation". Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, No. 1 (October, 1937), pp. 11-22. Stable URL:

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ayrim masalalari O‘zbekistonlik olim va mutaxassislardan E.Gadoyev, Sh.Toshmatov, N.Jumayev, N.Haydarov, S.Xudoykulov, N.Kuziyeva, O.Olimjanov, I.Yuldashev, M.Adizov O.Abdurahmonov, M.Usmanova, A.Agzamov, A.Bozorov, Sh.Qiyosov N.Artikova A.Islamkulov kabi iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish masalalari I.Yuldashev, A.Adizov, O.Abdurahmonov, M.Usmanova, A.Agzamov, A.Bozorov, Sh.Qiyosov va boshqalar tomonidan dissertatsiya ishlarida tadqiq qilingan⁴.

<http://www.jstor.org/stable/41786912>, Walter A. Durham, Jr. and Grover William Ensley “Revenue possibilities of the personal income tax” Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 25, No. 8 (May, 1940), pp. 231-235. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/41788057>, Ramsey F.A. Contribution to the Theory of Taxation // Economic Journal. 1927. No. 37. P. 47-61, Mirrlees J. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. Review of Economic Studies. 1971. No. 38. P. 175-208, Sheshinski E. The Optimal Linear Income Tax// Review of Economic Studies. 1972. Vol. 39. P. 297-302, Sadka E. On Income Distribution, Incentive Effects, and Optimal Income Taxation// Review of Economic Studies. Vol. 43. P 261-268, 1976., Stern N. On the Specification of Models of Optimum Income Taxation// Journal of Public Economics. 1976. Vol. 6. P. 123-162, Seade J. On the Shape of Optimal Tax Schedules// Journal of Public Economics. 1977. Vol. 7. P. 203-236., Burdescu, R., G.J. Reid, S. Gilman and S. Trapnell (2009), Stolen Asset Recovery – Income and Asset Declarations: Tools and Trade-offs, The World Bank, United Nations Office of Drugs and Crime. p. 29, M.Allingham and A.Sandmo. Income tax evasion: a theoretical analysis. 1972-yil. Journal of public economics 323-338 p., Norregaard, M.J. Taxing Immovable Property Revenue Potential and Implementation Challenges / M.J. Norregaard. – International Monetary Fund. –2013. – Rejim dostupa: (дата обращения: 18.09.2015). Blochliker H. Reforming the Tax on Immovable Property: taking care of the unloved/ H.Blochliker. – OECD Economics Department Working Papers No. 1205. –Режим доступа: http://www.oecd-ilibrary.org/economics/reforming-the-tax-on-immovableproperty_5js30tw0n7kg-en?crawler=true (дата обращения: 21.01.2016). Slack E. The Political Economy of property Tax Reform / E. Slack, R.Bird. – OECD Working Paper on Fiscal Federalism.–2014.–№18. Режим доступа: http://www.oecd-ilibrary.org/taxation/the-political-economy-of-property-taxreform_5jz5pzvzv6r7-n?crawler=true(дата обращения: 21.01.2016). А.Агапова «Развитие налогообложения доходов физических лиц в Российской Федерации». Автореф.дисс. Москва. 2007., Романовский М., Врублевская О., Сабанти Б., Финансы. – М.: Юрайт, 2008. – 504 с., В.Н. Лапин. «Налог на доходы физических лиц и пути повышения его собираемости». Вестник. 2008. №2(21). 88-90 стр., С.Павленко «Правовое регулирование налога на доходы физических лиц». Автореф.дисс. Москва. 2010., Г.Морозова «Развитие системы налогообложения доходов физических лиц». Автореферат дисс. Москва. 2009. 4-бет., Сбежнев А. «Вычети по налогу на доходы физических лиц». Автореферат дисс. Москва. 2010. 10-бет., А.Галаятдинова «Семья как участник налоговых правоотношений». Налогообложения физических лиц — № 6 (96).2012, О.Савина «Семейное налогообложение как инструмент усиления социализации налоговой политики на современном этапе». Социальная сфера 19(208)-2013.стр.52-57., А.Аксенова «Налогообложение доходов физических лиц: индивидуальное или семейное?». Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ». Выпуск 6, ноябрь – декабрь 2013., Е.Ермасова Неравенство в налогообложении доходов физических лиц для нерезидентов. Изв. Саратов. Ун-та. Нов.сер. Экономика. Управления. Право. 2014. Т. 14. Вып 4, О.Изотова «Перспективы реформирования налога на доходы физических лиц как инструмента социальной политики государства». Автореферат дисс. Москва. 2015., М.Пьянова «Льготы по налогу на имущество физических лиц как инструмент реализации социальной функции налога». Финансовая аналитика: проблемы и решения. 16 (2016) 44-52., А.Алиев Совершенствование механизма налогообложения физических лиц. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. – М.: 2011. – 21 с., С. В. Богачев, Налог на недвижимость: опыт зарубежных стран // Налоги и сборы. – 2017. – № 1. – С. 45–50., Е.А.Кирова 2019. Опыт налогообложения недвижимого имущества физических лиц в зарубежных странах и его применение в России. Статья доступна по лицензии Creative Commons “Attribution” (“Атрибуция”) 4.0. всемирная (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>). Смирнов, Д.А. Теория и методология имущественного налогообложения: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.10 / – М., 2010. – 392 с, Алиев, Х.Б. Развитие налогообложения недвижимого имущества физических лиц в Российской Федерации: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Алиев Хаджимурад Басирович. – Махачкала, 2012. – 169 с., Маргулис, Р.Л. Совершенствование налогообложения недвижимого имущества физических лиц: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Маргулис Роман Львович. – М., 2010. – 187 с., Михина, Е.В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Михина Елена Владимировна. – М., 2005. – 250 с.

⁴ Gadoyev E. va boshq. Soliqqa oid xatolar. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1996. -128 b.; Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlar roli: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 204 b.; Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. T.: Akademiya, 2007. 79 s. I.Yuldashev “Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda umumdeklaratsiyalash tizimini joriy etish masalalari”. Diss avtoreferati. Toshkent BMA,

Sanab o‘tilgan olimlarning aksariyati o‘z tadqiqotlarida respublikada jismoniy shaxslar daromadlarini umumdeklaratsiyalash tizimiga o‘tishni nazarda tutgan, biroq deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va mulkiy daromadlarni soliqqa tortishni takomillashtirish masalalariga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Jumladan, jismoniy shaxslarning ipoteke kreditlari va ta‘limga yo‘naltirilgan xarajatlarini yengillashtirish uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash hamda mulkiy daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish amaliyoti bilan bog‘liq masalalar to‘liq ochib berilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy

a

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining progressivligi va uning aholi daromadlari tengsizligiga ta‘sirini tadqiq etish;

a

jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlarni ta‘sirini empirik baholash uslubiyotini ilmiy jihatdan baholash holatini tahlil qilish;

jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari va ulardan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini ilmiy asoslash;

jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimida mavjud muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning istiqboldagi o‘zgarishlarini ilmiy asoslantirish va tegishli xulosalar shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish jarayoni olingan.

q

2002. 22 b., A.Adizov Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati – T.: DJQA, 2005-21 b., O.Abduraxmanov “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari”. Diss avtoreferati. Toshkent DJQA, 2005. 21 b., M.Usmanova “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish”. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: BMA, 2011.-23b. N.Artikova “Daromadlarni soliqqa tortish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish” iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2004. 67-bet. A.Islamkulov Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining budjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni. Bozor, pul va kredit//Рынок, деньги и кредит. Ilmiy-amaliy oylik jurnal. 2/2015. B-45-52., A.Agzamov “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish” i.f.b.f.d (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDIU, 2019.-26 b., A.Bozorov “O‘zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d (DSc) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDIU, 2023.-70 b., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 124 b.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda davlat budjeti bilan yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsion tadqiqot jarayonida to‘plangan statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, analiz va sintez, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil qilish, guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari tarkibini to‘liq aniqlash va soliqqa tortishda O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq dividendlar jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar ham dividendlar deb e’tirof etilishi taklif etilgan;

mol-mulkini ijaraga berib daromad oluvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda hududiy deputatlar Kengashlari tomonidan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etish taklif etilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan soliq imtiyozi samaradorligini oshirishda ularning ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘lariga nisbatan soliq imtiyozlarini qo‘llash taklif etilgan;

talabalarning turar joy muammosini hal qilish, ijara narxlarini barqarorlashtirishda soliq to‘lovchining uy-joylarni talabalarga ijaraga berishdan olingan daromadlariga nisbatan soliq imtiyozlarini qo‘llash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslar tomonidan mulklarni ijaraga berishning eng kam me’yorlari qo‘llanilishini takomillashtirish, bu borada hududiy deputatlar Kengashlari tomonidan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etilishi taklif etilgan;

O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchi farzandlari uchun ota-onalar tomonidan to‘langan mablag‘larga soliq imtiyozini qo‘llashda “yigirma olti yoshgacha” belgilangan yosh chegarasini olib tashlash taklif etilgan;

aholining ta’limga yo‘naltirilgan xarajatlarini yengillashtirish maqsadida, farzandlariga nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki maktablar ko‘rsatadigan ta’limga oid xizmatlar uchun to‘lanadigan oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlarni daromad solig‘idan ozod qilish taklifi ishlab chiqilib, jismoniy shaxslar ixtiyorida mablag‘lar ko‘payishi asoslangan;

talabalarning turar joy muammosini hal qilish, ijara narxlarini barqarorlashtirish, ta’lim tizimining rivojlanishiga hissa qo‘shish maqsadida, soliq to‘lovchining uy-joylarini talabalarga ijaraga berishdan olingan daromadlarini daromad solig‘iga tortmaslik taklifi ishlab chiqilgan;

Jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari tarkibini to‘liq aniqlash va soliqqa tortish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq dividendlar

jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar ham dividendlar deb e'tirof etilishi lozimligi yuzasidan nazariy taklif ishlab chiqilgan.

rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, jismoniy shaxslar tomonidan bolalar adabiyoti va badiiy adabiyotlar hamda dori-darmon vositalarini sotib olish uchun sarflangan xarajatlarini daromad solig'i bazasidan deklaratsiya asosida chegirish taklif qilingan;

jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni sotishdan olingan daromadlarni soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha taklif berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, soliq qonunchiligini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflarning soliq idoralari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish borasida yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish jarayonida hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Soliq idoralari tomonidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari tarkibini to'liq aniqlash va soliqqa tortishda O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq dividendlar jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar ham dividendlar deb e'tirof etilishi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 41-moddasi uchinchi qismida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 29-avgustdagi 16/2-99393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari to'liq qamrab olinishi ta'minlanib, ayniqsa xorijiy manbalardan olinadigan daromadlarni soliqqa tortishda aniqlik va yagona yondashuv shakllantiriladi, yashirin daromadlarni kamaytirish va soliq tushumlarini oshirishga erishiladi hamda bu fiskal barqarorlik va soliq tizimining umumiy iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada yuksaltirishga olib keladi;

mol-mulkini ijaraga berib daromad oluvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda hududiy deputatlar Kengashlari tomonidan ijara to'lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etishga doir

taklifi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son qonunining 12-moddasini mustahkamlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 29-avgustdagi 16/2-99393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ijara to'lovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishi darajasiga qarab 2,0 gacha oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etilishi, bunda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashi tomonidan ushbu koeffitsiyentdan yer solig'ini hisob-kitob qilish maqsadlari uchun belgilangan zonalar kesimida foydalanilishi, shu bilan birga tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari joriy etilishiga erishilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qo'llaniladigan soliq imtiyozlari samaradorligini oshirishda ularning ta'limga yo'naltirilgan mablag'lariga nisbatan soliq imtiyozlarini qo'llashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi 16-bandida qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining takomillashtirilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 29-avgustdagi 16/2-99393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, soliq imtiyozini qo'llashda "yigirma olti yoshgacha" belgilangan yosh chegarasini olib tashlash hamda farzandlariga nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va (yoki) maktablar ko'rsatadigan ta'limga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun to'lanadigan oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlarni daromad solig'idan ozod qilish lozimligi bo'yicha berilgan taklifi inobatga olinib, 2022-yil davomida 11,3 mlrd. so'm, 2023-yil davomida 19,6 mlrd. so'm, 2024-yil davomida 23,9 mlrd. so'm jismoniy shaxslar ixtiyorida qolishiga erishilgan;

talabalarning turar joy muammosini hal qilish, ijara narxlarini barqarorlashtirishda soliq to'lovchining uy-joylarni talabalarga ijaraga berishdan olingan daromadlariga nisbatan soliq imtiyozlarini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O'RQ-741-sonli Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi 19¹-band bilan to'ldirilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 29-avgustdagi 16/2-99393-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2022-yil davomida 12,8 mlrd. so'm, 2023-yil davomida 44,5 mlrd. so'm, 2024-yil davomida 63,2 mlrd. so'm jismoniy shaxslar ixtiyorida qolishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida 10 ta ilmiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta (2 ta mahalliy va 2 ta xorijiy nashrlarda) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tayyorlangan dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 164 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning usullari va ilmiy yangiligi yoritilgan, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda tadqiqot natijalarining joriy qilinishi ifodalangan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning nazariy-ilmiy asoslari”**ga bag‘ishlanib, unda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari, daromad solig‘ining funksiyalari, soliqqa tortish tamoyillari, shuningdek daromad solig‘ining progressivligi va uning aholi daromadlari tengsizligiga ta‘siri masalalari atroflicha o‘rganilib tadqiqotlar olib borilgan.

Fuqarolar daromadlari darajasining oshib borishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasida Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan alohida Farmon va qarorlar asosida ishlab chiqilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi⁵da aholining bandligini kengaytirish, barqaror daromad manbalarini yaratish hamda aholi farovonligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur strategiya doirasida 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allik darajasini kamida ikki barobarga qisqartirish maqsadi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olingan. Bu esa davlat rahbarining jamiyat farovonligi va davlat qudrati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi konseptual yondashuvini amaliyotda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qo‘llaniladigan maxsus soliq stavkalari va imtiyozlar har bir davlatning milliy soliq qonunchiligi hamda fiskal siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Ayrim mamlakatlarda daromad miqdoriga mutanosib ravishda oshib boruvchi progressiv soliq stavkalari joriy etilgan bo‘lsa, boshqa davlatlarda daromad darajasidan qat‘i nazar, yagona soliq stavkasiga asoslangan tizim amal qiladi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab iqtisodchi olimlar jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tizimini oilaviy farovonlikni oshirish hamda demografik barqarorlikni ta‘minlashning muhim vositasi sifatida baholaydilar. Ushbu yondashuvlar mamlakatlarning ichki iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, O‘zbekistonda ham oilaviy farovonlikni mustahkamlash maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega ayrim xarajatlarni

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son farmoni. //Xalq so‘zi. 2022-yil 28-yanvar

deklaratsiya orqali chegirish mexanizmini kengaytirish ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samara berishi mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan: Professor O.Abdurahmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mohiyatini ochishda unga quyidagicha ta'rif bergan: Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovlaridir⁶. M.Usmanova tomonidan olib borilgan izlanishlar, jismoniy shaxslarga nisbatan daromad solig'ini qo'llashda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorini aniq belgilash va amaliyotga joriy qilish, daromadlarni deklaratsiyalashda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlarini daromaddan chegirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan⁷. Professor A.Bozorov tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qo'llaniladigan individual imtiyozlarni bekor qilish, oliy ta'lim muassasalarida turmush o'rtog'ining ta'lim olishi uchun to'lovga yo'naltirilgan holatda mazkur daromadlarga soliq imtiyozlarini qo'llash, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari, jumladan mulkini ijaraga berishdan, sotishdan olinadigan daromadlari bo'yicha fiskal siyosat ta'sirchanligini oshirish maqsadida ushbu daromadlarga nisbatan optimal soliqqa tortish amaliyotini tatbiq etish takliflari asoslangan⁸. Professor Sh.Qiyosov tomonidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha tadqiqot olib borilgan⁹. Tadqiqot ishida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun daromad solig'i bo'yicha imtiyoz belgilash, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq summalari bo'yicha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilash, daromad solig'i bo'yicha qo'llaniladigan imtiyozlarni takomillashtirish bo'yicha e'tibor qaratilgan va takliflar ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar hamda sohaga tegishli iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayanib, jismoniy shaxslarning sotiladigan mulklarning egallagan maydoniga nisbatan joylashgan joylari bo'yicha eng kam me'yorlar belgilash va mulklarni ijaraga berishning eng kam me'yorlariga alohida, boshqa shaharlar (viloyat markazi hisoblanmagan) uchun minimal miqdorlarni joriy etish fikrimizcha o'zining ijobiy natijasini beradi.

Xalqaro amaliyot va mahalliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibida, shuningdek soliqqa tortish niqta nazaridan dividend tarzidagi daromadlar asosiy o'rin egallaydi. Shunday ekan jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari va ularga soliq solishning nazariy xususiyatlariga alohida to'xtalib tadqiqotlar olib borishni lozim topdik.

“Dividend” tushunchasi, uning mohiyati, bunday daromadlarni soliqqa tortish xususiyatlari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borgan bo'lib,

⁶ Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari./ Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2005. B. — 52-53.

⁷ M.Usmanova “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish”. Diss avtoreferati. Toshkent BMA, 2011. 23 b.

⁸ A.Bozorov “O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d (DSc) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: TDIU, 2023.-70 b.,

⁹ Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 124 b.

ularning ayrimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va mulohazalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak (1-jadval)

1-jadval

Jismoniy shaxslarning dividend tarzidagi daromadlari va ularni soliqqa tortishning oqibatlari bilan bog'liq tadqiqotlar

Olim(lar) va yili	Asosiy tadqiqot va mulohazalar
Miller va Modigliani (1961)	Mukammal bozorlarda dividend siyosati kompaniya qiymatini o'zgartirmaydi, ammo soliqlar bu nazariyani buzadi ¹⁰ . Soliqlar dividend va kapital daromadlari o'rtasidagi afzalliklarni o'zgartiradi
Harberger (1962), Feldstein (1970), Poterba va Summers (1984)	Dividend solig'i kapital narxini oshiradi, investitsiyalarni kamaytiradi va "ikki marta soliqqa tortish" iqtisodiy samarasizlikka olib keladi ¹¹ . Dividend solig'i korporativ investitsiyalarni 20% ga qisqartirishi mumkin 2003-yilgi soliq pasayishi investitsiya samaradorligini oshirdi ¹² .
King (1977), Auerbach (1979), Bradford (1981)	Dividend solig'i yangi aksiya emissiyasini cheklashi mumkin, ammo mavjud foydani taqsimlashda ta'siri kam. Soliqlar "dividend puzzle"ni (nima uchun soliq bo'lsa ham dividend to'lanadi?) tushuntiradi ¹³ . Fransiyadagi dividend uchun soliq oshishi investitsiyalarni oshirgan ¹⁴ .
Chetty va Saez (2005, 2010)	Soliqlar dividend to'lashni kamaytiradi, ammo agentlik muammolari (masalan, rahbar va aksiyadorlar o'rtasidagi ziddiyat) ta'sirini yumshatadi. 2003-yilgi soliq pasayishi dividendlarni 20% oshirdi.
Jacob va Michaely (2017)	Soliqlar dividend sezgirligini kamaytiradi, ammo koordinatsiya va soliq afzalliklari ta'sirini o'zgartiradi ¹⁵ .
Bilicka, Güçeri va Koumanakos (2025)	Soliq stavkasining oshishi dividendlarning tushishuiga olib keladi, ammo uskunalar sotib olish o'zgartirmaydi. Soliqlar dividendlarni pasaytirib, mulk egalarining shaxsiy aktivlariga yo'naltiradi ¹⁶ .

Yuqorida keltirilgan olimlar tadqiqotlari hamda mamlakatimizdagi soliq qonunchiligini o'rganib chiqish natijasida bizning tadqiqotlarimiz shuni taqazo etmoqdaki, jismoniy shaxslarning soliq solinadigan dividend tarzidagi mulkiy daromadlari tarkibiga "O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olinadigan, chet davlatlarning qonunchiligiga muvofiq dividendlar jumlasiga kiritiladigan har qanday daromadlar ham kiritilishi" tadqiq etildi va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 41-moddasi uchinchi qismida o'z aksini topdi¹⁷.

Fikrimizcha jismoniy shaxslar daromadlari har xil manbalardan tashkil topishi, ularning daromadlariga nisbatan deklaratsiya asosida soliqqa tortish mexanizmining qo'llanilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlash zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki aholi turmush darajasini, daromad to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim.

¹⁰ https://www.researchgate.net/publication/230720120_Dividend_Policy_A_Review_of_Theories_and_Empirical_Evidence.

¹¹ <https://www.nber.org/papers/w1353>

¹² <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0165410122000374>

¹³ https://www.researchgate.net/publication/228597316_The_economic_effects_of_dividend_taxation

¹⁴ <https://economics.princeton.edu/working-papers/dividend-taxes-and-the-allocation-of-capital/>

¹⁵ <https://academic.oup.com/rfs/article-abstract/30/9/3176/3859607>

¹⁶ <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/pol.20230109>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 29-avgustdagi 16/2-99393-sonli ma'lumotnomasi.

Ilmiy izlanishlar orqali anglash mumkinki, daromad solig'ining progressivligi aholi daromadlarining tengsizligiga ijobiy ta'sir etadi. Aholi daromadlarining noteng taqsimlanishi ortib ketishi natijasida mamlakatda daromadlar nuqtayi nazaridan tabaqalanish vujudga kelishi mumkin.

Yetuk iqtisodchi olimlar J.Mirrlees va F.Ramseylarning tadqiqotlari natijasidagi mulohazalariga ko'ra "daromad solig'i progressivligining yuqori darajada bo'lishi aholining ixtiyorida qoladigan daromadlarning teng taqsimlanishiga olib keladi"¹⁸. Shu bilan birga olimlarning fikriga ko'ra daromad solig'ining o'rtacha progressivligi yoki proporsionalligi yuqori daromad oluvchi shaxslarning soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini pasaytirishga olib keladi.

Fikrimizcha daromad solig'i stavkasining progressivligi yuqori darajada bo'lishi bir tomondan, aholi daromadlari tengsizligiga ijobiy ta'sir etishi mumkin, ammo ikkinchi tomondan aholining daromadlarini yashirish ko'rsatkichining ortib ketishiga olib kelishi mumkin. Shunday ekan aholi daromadlariga nisbatan soliq stavkalarini belgilashda mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda aholi daromadlarining yuqoriligi yoki kamligi inobatga olinishi muhim hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan va aholi daromadlari yuqori hisoblanuvchi mamlakatlarda daromad solig'ining progressivligi yuqori bo'lishi ijobiy hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi o'rtacha progressiv yoki proporsional bo'lishi yoxud soliq stavkalarini qo'llashda soliqqa tortilmaydigan minimumlarning qo'llanilishi maqbul hisoblanadi.


Dissertatsiyaning "**Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili**"ga deb nomlangan ikkinchi bobida, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning amaldagi mexanizmlari, ularning samaradorligi va byudjetga kiritayotgan hissasi, daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlarning qo'llanilish tartibi va samaradorligi, shuningdek, soliqlar orqali aholi daromadlariga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy omillar ekonometrik va statistik usullar yordamida tizimli ravishda tahlili amalga oshirilgan.

Jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibini to'g'ri aniqlash, ularning shakllanish manbalari va soliqqa tortishni tartibga solish nafaqat soliq tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi, balki yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga, moliyaviy oqimlarning legallashtirilishiga ham xizmat qiladi. Shu jumladan, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar so'nggi yillarda daromad solig'i tizimining dolzarb yo'nalishiga aylandi. Aholi o'rtasida ijaraga berilgan turar joy, noturar joy va boshqa mol-mulk turlaridan olinadigan daromadlar hajmining ortishi soliq bazasini kengaytirish va adolatli soliqqa tortishni ta'minlash zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Olib boriladigan tadqiqotlar jismoniy shaxslarning daromadlarini tasniflash, ijaraga berishdan olinadigan daromadlar bo'yicha soliqqa tortish mexanizmlarini tahlil qilish, amaldagi soliq siyosatining samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi. Natijada shaffof, adolatli va samarali soliq tizimini shakllantirish yo'lida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

¹⁸ Mirrlees, James A. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation." *Review of Economic Studies* 38, no. 114 (1971): 175-208. Ramsey, Frank. "A Contribution to the Theory of Taxation." *Economic Journal* 37, no. 145 (1927): 47-61.

Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali O'zbekistonda jismoniy shaxslarning deklaratsiyalanadigan daromadlari tarkibi va mol-mulkn ijaraga berishdan olingan daromatlarga nisbatan hisoblangan daromad solig'i miqdori tahlilini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm. Jismoniy shaxslarning deklaratsiyalanadigan daromadlari tarkibi va mol-mulkn ijaraga berishdan olingan daromatlarga nisbatan hisoblangan daromad solig'i miqdori.

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, 2020–2024 yillar davomida jismoniy shaxslarning deklaratsiyalanadigan daromadlari tarkibida mol-mulkn ijaraga berishdan olingan daromadlar yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Mazkur davrda ushbu daromadlar hajmi yildan-yilga barqaror o'sib borgan bo'lib, 2020-yildagi 1 475,6 mlrd. so'mdan 2024-yilda 2 883,8 mlrd. so'mga yetgan. Bu esa to'rt yil ichida deyarli ikki baravarlik o'sishni anglatadi. O'sishning asosiy omillari sifatida ijaraga bo'lgan talabning ortishi, uy-joy bozorining jonlanishi, ijarani rasmiylashtirish tartibining soddalashtirilishi, shuningdek, soliq ma'murchiligi va nazoratning kuchayib borishini ko'rsatish mumkin.

ma'lumki, soliqlar bo'yicha imtiyoz yoki yengilliklar qo'llanilmaydigan mamlakatlar deyarli uchramaydi. Demak soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilarni rag'batlantirish yoki qo'llab-quvvatlash o'zining ijobiy xususiyatlariga ega h i O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari summasi va ushbu imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, (2-rasm).

b
l
a
n
a
d




2-rasm. O‘zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari summasi va ushbu imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar soni o‘zgarishining dinamikasi¹⁹, (mln.soʻmda).

Yuqoridagi 2-rasm maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, 2020–2024 yillar kesimidagi maʼlumotlar imtiyozlar miqdori hamda ularni qoʻllagan shaxslar sonida barqaror oʻsish tendensiyasini namoyish etadi. 2020-yilda pandemiya oqibatida iqtisodiy faollikning pasayishi sababli imtiyozlar summasi 629,6 mlrd. soʻmni, foydalanuvchilar soni esa 32,9 ming nafarni tashkil etib, nisbatan past darajada boʻlgan. Ammo 2021-yilda iqtisodiyotning tiklanishi, rasmiy bandlikni kengaytirish boʻyicha qabul qilingan chora-tadbirlar, soliq imtiyozlarining maqsadliligi oshishi natijasida imtiyozlar miqdori 783,1 mlrd. soʻmga, foydalanuvchilar soni esa 49,2 ming nafarga yetib sezilarli oshgan. Bu davrda aholining rasmiy daromad olishi va soliqqa oid ragʻbatlantirish mexanizmlariga boʻlgan ishonch ortgani kuzatiladi.

Soliq imtiyozlarining qoʻllanilishi iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu imtiyoz oilalarning taʼlim uchun qiladigan xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirib, taʼlim olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Quyidagi 3-rasm maʼlumotlari orqali O‘zbekiston Respublikasining professional va oliy taʼlim tashkilotlarida taʼlim olish (oʻzining, farzandlarining, shuningdek yigirma olti yoshga toʻlmagan erining (xotining) taʼlim olishi) uchun toʻlovga yoʻnaltiriladigan, soliq solinishi lozim boʻlgan ish haqi va boshqa daromadlarga ega boʻlgan jismoniy shaxslar va ularga qoʻllanilgan soliq imtiyozlari tarkibini koʻrishimiz mumkin.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi maʼlumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan (bunda talabalar uchun ijara, kontrakt, hamda ipoteka krediti boʻyicha qoʻllanilgan imtiyozlar inobatga olinmagan).



3-rasm. Ta'lim olish uchun to'lovga yo'naltirilgan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlari qo'llanilgan shaxslar soni va daromad solig'idan qo'llanilgan soliq imtiyozlar²⁰, (mln.so'mda)

Yuqoridagi 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida professional va oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish uchun to'lovga yo'naltirilgan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslarga berilgan soliq imtiyozlarining qo'llanilishida sezilarli o'sish va barqaror ijobiy dinamika kuzatilgan. 2021-yilda imtiyozdan foydalangan shaxslar soni 55 975 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil hisob-kitoblariga ko'ra bu ko'rsatkich 403 844 nafarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa besh yil ichida foydalanuvchilar soni qariyb 7 baravar oshganligini ko'rsatadi. Imtiyoz summasi ham mos ravishda 65,2 mlrd. so'mdan 418,4 mlrd. so'mga yetib, 6,4 baravar o'sish qayd etilgan. Bunday o'sishning shakllanishiga bir qator iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy omillar sabab bo'lgan.

Umuman olganda, ta'lim uchun to'lovga yo'naltirilgan daromadlarni soliqdan ozod qilish tizimi O'zbekistonning soliq siyosatida eng samarali va aholi manfaatiga yo'naltirilgan mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar soni ortib borishi bilan ularning turar joyga bo'lgan ehtiyoji ham sezilarli darajada oshmoqda. Shuning uchun jismoniy shaxslar tomonidan kvartiralarini talabalar uchun ijaraga berish amaliyoti nafaqat talabalarning yashash sharoitlarini yaxshilashga, balki uy-joy bozorida barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, bunday daromadlar ustidan daromad solig'idan imtiyoz qo'llanishi ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga ega bo'lib, xususiy uy-joy egalari talabalar uchun joy ajratishga rag'batlantiradi. Natijada, talabalar arzon va qulay turar joyga ega bo'lib, ularning o'qishga bo'lgan e'tibori va samaradorligi oshadi, shuningdek, uy-joy egalari ham qonuniy asosda qo'shimcha daromad oladi, bu esa soliq tizimining soddaligi va adolatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan.

Quyidagi 2-jadval ma'lumotlari orqali turar joy (kvartira)larini talabalarga ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar va ularning daromadlariga nisbatan daromad solig'idan qo'llanilgan soliq imtiyozlari miqdorini ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Turar joylarini talabalarga ijaraga berib daromad oluvchi va daromad solig'idan imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hamda imtiyoz summalari miqdori (mln. so'mda)²¹

№	Hududlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	Qoraqalpog'iston R.	834	794,8	1 627	1 877,6	1 849	2 321,0	1 696	1 989,9
2	Andijon vil.	327	429,5	719	1 006,8	836	1 471,7	791	1 188,5
3	Buxoro vil.	993	746,8	1 937	2 354,9	2 147	3 575,5	1 523	2 106,2
4	Jizzax vil.	489	517,5	1 076	1 118,7	1 214	1 310,0	525	515,6
5	Qashqadaryo vil.	767	772,6	1 511	2 137,9	1 709	2 533,9	1 154	1 622,2
6	Navoiy vil.	422	511,7	886	1 335,5	996	1 427,2	604	752,2
7	Namangan vil.	503	651,2	960	1 807,8	1 061	1 828,0	712	957,6
8	Samarqand vil.	1 799	1 219,2	3 329	3 369,6	3 658	6 675,2	2 735	4 214,7
9	Surxondaryo vil.	1 322	486,8	2 736	1 880,0	3 109	4 230,5	2 290	2 533,3
10	Sirdaryo vil.	319	299,1	669	618,2	769	1 013,1	565	731,9
11	Toshkent vil.	812	840,4	1 543	1 902,4	1 696	3 013,6	1 449	2 147,1
12	Farg'ona vil.	516	581,5	928	1 295,8	1 031	1 511,8	631	872,7
13	Xorazm vil.	355	322,1	710	909,4	798	1 322,1	810	1 177,0
14	Toshkent sh.	7 632	4 625,2	13737	22 799,3	15096	31 020,4	14151	23 199,5
	Respublika jami	17090	12798,4	32368	44413,8	35969	63254,0	29636	44008,5

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rinadiki, 2022–2025-yillarda talabalarga kvartira ijarasi orqali daromad oluvchi jismoniy shaxslarning daromad solig'idan imtiyoz qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar mamlakatning turli hududlarida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Jadvaldagi ko'rsatkichlarga qaraganda, umumiy holat soni 2022-yilda 17 090 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda u 32 368 taga yetgan va 2024-yilda 35 969 holatga ko'tarilgan. 2025-yilda esa hisoblangan qiymatlar 29 636 holatni tashkil etadi. Shu bilan birga, jami summalar bo'yicha ham o'sish aniq seziladi: 2022-yilda 12 798,4 mln so'mdan 2024-yilda 63 254,0 mln. so'mgacha yetgan, 2025-yilda esa hisoblangan summa 44 008,5 mln. so'mni tashkil qiladi. Bu o'zgarishlar bir qator omillar bilan izohlanadi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra, "farzandlariga nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va (yoki) maktablar ko'rsatadigan ta'limga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun to'lanadigan oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlar" jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi²².

Quyidagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2023–2025 yillarda jismoniy shaxslarning farzandlarini nodavlat ta'lim muassasalarida o'qitganliklari uchun daromad solig'idan berilgan imtiyozlar mamlakat bo'ylab sezilarli darajada oshib borgan bo'lib, bu ta'lim tizimi, soliq siyosati va xususiy sektor rivojining o'zaro ta'sirini chuqur aks ettiradi.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan.

²² Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi 16-bandi.

3-jadval

Jismoniy shaxslar farzandlarini nodavlat ta'lim muassasasida o'qitganligi uchun to'lovlar bo'yicha daromad solig'idan qo'llanilgan imtiyozlar (mln. so'mda)²³

№	Hududlar	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	Qoraqalpog'iston R.	180	539,9	246	360,9	435	974,1
2	Andijon vil.	388	462,7	901	1 658,5	1 002	2 177,6
3	Buxoro vil.	302	704,0	693	1 260,9	494	1 134,6
4	Jizzax vil.	403	602,8	279	487,3	208	487,8
5	Qashqadaryo vil.	1 018	1 314,4	3 597	4 721,4	6 073	8 704,6
6	Navoiy vil.	353	448,8	419	761,5	511	980,1
7	Namangan vil.	436	443,1	276	522,5	383	862,3
8	Samarqand vil.	432	382,0	459	1 233,6	807	2 207,5
9	Surxondaryo vil.	289	458,3	386	732,7	615	1 158,8
10	Sirdaryo vil.	111	210,5	205	534,9	296	648,6
11	Toshkent vil.	887	1 619,0	1 435	2 695,0	1 474	3 484,0
12	Farg'ona vil.	512	696,4	900	1 480,8	1 089	2 530,0
13	Xorazm vil.	472	472,6	506	653,0	399	737,5
14	Toshkent sh.	3 589	12 953,7	4 336	18 503,3	5 145	21 787,9
	Respublika jami	9 372	21 308,2	14 638	35 606,3	18 931	47 875,4

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Respublika bo'yicha imtiyozdan foydalanganlar soni 2023 yildagi 9 372 nafardan 2024 yilda 14 638 nafarga, 2025 yilda esa 18 931 nafarga yetgan. Imtiyoz summalari ham mos ravishda 21,3 mlrd, 35,6 mlrd. va 47,8 mlrd. so'mga ko'tarilgan. Bu o'sish bir necha omillarning uyg'un ta'siri natijasi bo'lib, eng avvalo nodavlat ta'lim xizmatlari bozori kengayishi, aholining ushbu imtiyozlar haqidagi xabardorligining oshishi, ta'lim xizmatlari narxlarining o'zgarishi hamda farzandlariga sifatli ta'lim berishga intilayotgan oilalar sonining ortishi bilan izohlanadi.

Mazkur soliq imtiyozining amalda qo'llanilishi, bir tomondan, ota-onalarning moliyaviy yukini yengillashtirsa, boshqa tomondan, ta'lim xizmatlarining rasmiylashtirilgan, shaffof va tartibli tarzda amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ushbu imtiyoz orqali oilalarning farzandlarining sifatli ta'lim olishiga bo'lgan intilishi rag'batlantiriladi, nodavlat ta'lim muassasalarining rivoji hamda ta'lim bozorida sog'lom raqobatning shakllanishiga zamin yaratiladi.

Tadqiqot ishimizda mamlakatimizdagi aholini umumiy daromadlariga (PI), aholini real umumiy daromadiga (RPI), aholini jon boshiga real umumiy daromadlariga (RIPC), aholini jon boshiga to'g'ri keladigan daromadiga (PCI) ta'sir qiluvchi omillar hisoblangan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar (ITD), qarzdorlik (ITL) va daromad solig'i progressiv stavkalarini 2018-yilgacha bo'lgan davr va 2019-yildan 2026-yilgacha proporsional soliq stavkasini inobatga olib, dammi o'zgaruvchi (dummy) mustaqil o'zgaruvchilarning ta'sirini regression va korreltsion model tuzish hamda model asosida prognoz qilishga e'tibor qaratamiz.

²³ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan tayyorlangan.

Ko'p omilli regression va korrelyatsion ekonometrik modelni tuzishda "eng kichik kvadratlar usulidan" foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tadqiqotda tanlangan uchta modelda ham modelning diagnostika analizlari amalga oshirilgan. Xususan, Breush-Godfri avtokorrelyatsiya testi va Breush-Pagan-Godfri geteroskedastik testlarini tekshiruvdan o'tkazilgan. O'tkazilgan testlarga ko'ra, tanlangan uchta modelda qoldiqlarning avtokorrelyatsiya mavjud emasligini va qoldiqlarning geteroskedastik mavjud emasligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, modelda qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmasa, qoldiqlarda tebranishi gomoskedastik bo'lishi modelning prognoz qilish imkoniyatini beradi.

4-jadval

Aholi daromadlariga soliqlar orqali ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik

<i>Aholini umumiy daromadlariga (PI) ta'sir etuvchi omillar ta'sirini regression va korrelyatsion ekonometrik modeli</i>				
$\ln \widehat{PI} = 3.078924 + 0.493766 \ln ITD + 0.648167 \ln ITL + 0.790051 \text{ dummy} + \varepsilon$				
O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistik	Ehtimoligi (P-qiyamat)
ln ITD	0.493766	0.207591	2.378557	0.0446**
ln ITL	0.648167	0.192258	3.371340	0.0098**
dummy	0.790051	0.283500	2.786782	0.0237**
C (o'zgarmas)	3.078924	1.505713	2.044828	0.0751
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.981236	Bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati	12.24587	
<i>Jon boshiga real umumiy daromadlariga (RIPC) ta'sir etuvchi omillar ta'sirini regression va korrelyatsion ekonometrik modeli</i>				
$\ln \widehat{RIPC} = 4.978267 + 0.711769 \ln ITD + 0.444495 \ln ITL + 0.580029 \text{ dummy} + \varepsilon$				
ln ITD	0.711769	0.258389	2.754644	0.0249**
ln ITL	0.444495	0.189203	2.349299	0.0467**
dummy	0.580029	0.175229	3.310121	0.0107**
C (o'zgarmas)	4.978267	1.372344	3.627565	0.0067
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.980668	Bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati	8.774269	
<i>Aholini jon boshiga to'g'ri keladigan daromad (PCI)</i>				
$\ln \widehat{PCI} = 5.581924 + 0.743782 \ln ITD + 0.470562 \ln ITL + 0.605391 \text{ dummy} + \varepsilon$				
ln ITD	0.743782	0.234315	3.174280	0.0131**
ln ITL	0.470562	0.171576	2.742587	0.0253**
dummy	0.605391	0.158903	3.809808	0.0052**
C (o'zgarmas)	5.581924	1.244487	4.485322	0.0020
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.985325	Bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati	8.865740	

*** 1% da statistik muhimligini, **5% da statistik muhimligini, *10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

Birinchi model bo'yicha xulosa shuni ko'rsatadiki, daromad solig'idan imtiyozlar summasi 1 foizga o'sishi aholini umumiy daromadlari 0,49 foizga

o'sishiga, daromad solig'idan qarzdorlik summasini 1 foizga o'sishi aholini umumiy daromadlari 0,64 foizga o'sishiga va soliq stavkasini progressiv shaklda amalga oshiri natijasida soliq stavklarini 1 foizga o'zgarishi aholini umumiy daromadlari 0,79 foizga o'zgarishiga olib keladi.

Ikkinchi modelda esa, daromad solig'idan imtiyozlar summasi 1 foizga o'sishi aholini jon boshiga real umumiy daromadlari 0,71 foizga o'sishiga, daromad solig'idan qarzdorlik summasini 1 foizga o'sishi aholini umumiy daromadlari 0,44 foizga o'sishiga va soliq stavkasini progressiv shaklda amalga oshiri natijasida soliq stavklarini 1 foizga o'zgarishi aholini umumiy daromadlari 0,58 foizga o'zgarishiga olib keladi.

Uchinchi modelda esa, daromad solig'idan imtiyozlar summasi 1 foizga o'sishi aholini jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 0,74 foizga o'sishiga, daromad solig'idan qarzdorlik summasini 1 foizga o'sishi aholini umumiy daromadlari 0,47 foizga o'sishiga va soliq stavkasini progressiv shaklda amalga oshiri natijasida soliq stavklarini 1 foizga o'zgarishi aholini umumiy daromadlari 0,60 foizga o'zgarishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan barcha model bo'yicha umumiy xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, aholini daromadini oshishiga soliq stavkalarini tabaqalanishi kuchli ta'sir qilishi ekonometrik model asosida o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, soliq stavklarini proporsion usulda hisoblanishi amalga oshirish natijasida aholini daromadlarini tabaqalanishiga olib keladi. Xususan, aholini daromadi darajasiga qarab soliq stavkalarini belgilash va soliq tushumini ortishiga olib kelishi ekonometrik tahlillar natijasida o'z tasdig'ini topdi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘zbekiston jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari”**ga bag'ishlanib, unda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish jarayonidagi mavjud muammolar tahlil qilinib, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganilgan va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari aniqlangan, shuningdek, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlarini oshirish va aholi daromadlari tengsizligini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

Olib borgan tadqiqot ishimiz natijasida bir necha mamlakatlarda aynan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalasi o'rganilib, ularni mamlakatimizda qo'llash uchun zaruriyat borligi asoslab berildi.

So'nggi yillarda ilg'or tadqiqotlar progressiv daromad solig'ini modellashtirishga qaratilgan bo'lib, bunga asosan Mirrlesning optimal daromad solig'ining zamonaviy nazariyasida daromad solig'i shkalasi progressiyaning optimal darajasi haqidagi savolga ham, marjinal stavkalarining o'lchamlari va ularni qo'llash diapazonlari haqidagi savollarga ham to'liq javob bermasligini ko'rsatib o'tish mumkin. Daromad solig'i tizimining asosini shaxsiy daromad solig'i tashkil etib, rezidentlarning daromadlaridan va norezidentlarning daromadlaridan qonunchilik o'rnatilgan tartibda proporsional yoki progressiv stavkalar undiriladi. Masalan, Rossiyada asosiy soliq stavkasi 13%, progressiv shkalada AQSh va

Avstriyada 55%, Belgiyada. Isroilda – 50%, Gollandiyada – 52%, Fransiya, Germaniya, Gretsiyada — 45% gacha etadi. Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning muhim elementiga, soliq ushlanmaydigan minimal daromad summasi hamda turli ijtimoiy va investitsion soliq chegirmalarini keltirib o‘tish mumkin²⁴.

AQShda o‘tgan asrning 80-yillarida o‘tkazilgan soliq islohotlari jarayonida fuqarolar daromadini soliqqa tortish, jumladan, deklaratsiya mexanizmini qo‘llash borasida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. 1986-yilga qadar AQShda fuqarolardan daromad solig‘i 14 ta stavkada 11 dan 50% gacha miqdorda undirilgan²⁵. Hozirgi kunda AQShda 10 foizdan 37 foizgacha oraliqdagi 7 ta progressiv stavkalar qo‘llanilgan holda daromad solig‘i hisob-kitob qilinadi (5-jadval).

5-jadval

AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkalari²⁶ (AQSh dollarida)

Soliq stavkasi, %	Yolg‘iz (uylanmagan yoki oilali bo‘lmaganlar)	Oilali birgalikda (oilaviy daromadidan)	Oilali yakka holda (alohida daromadlari bo‘yicha)	Oila boshlig‘i (boshqa daromad oluvchilar oilada bo‘lmaganda)
10%	\$0 – \$11,000	\$0 – \$22,000	\$0 – \$11,000	\$0 – \$15,700
12%	\$11,001 – \$44,725	\$22,001 – \$89,450	\$11,001 – \$44,725	\$15,701 – \$59,850
22%	\$44,726 – \$95,375	\$89,451 – \$190,750	\$44,726 – \$95,375	\$59,851 – \$95,350
24%	\$95,376 – \$182,100	\$190,751 – \$364,200	\$95,376 – \$182,100	\$95,351 – \$182,100
32%	\$182,101 – \$231,250	\$364,201 – \$462,500	\$182,101 – \$231,250	\$182,101 – \$231,250
35%	\$231,251 – \$578,125	\$462,501 – \$693,750	\$231,251 – \$346,875	\$231,251 – \$578,100
37%	\$578,126+	\$693,751+	\$346,876+	\$578,101+

AQShda jismoniy shaxsning 11 000 AQSh dollarigacha bo‘lgan barcha daromadlari 10 foizli stavkada soliqqa tortiladi. Masalan jismoniy shaxsning daromadi 12 000 AQSh dollarni tashkil qiladigan bo‘lsa avvalo, 11 000 AQSh dollari 10 foizlik stavkada, qolgan 1000 AQSh dollari esa 12 foizlik stavkada soliqqa tortiladi.

Fransiyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i g‘oyat muhim soliq turlaridan biri hisoblanadi (davlat budjetidagi salmog‘i 21,0 % dan ortiq). Ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratish lozimki, Fransiyada yuqori boylikka ega shaxslar alohida daromad solig‘ini to‘laydi (6-jadval)

6-jadval

Fransiyada boylik solig‘i stavkalari²⁷

Daromad miqdori	Soliq stavkasi
800 000 yevrogacha	0 %
800 000 yevrodan - 1 300 000 yevrogacha	0,5 %
1 300 000 yevrodan - 2 570 000 yevrogacha	0,7 %
2 570 000 yevrodan - 5 000 000 yevrogacha	1,0 %
5 000 000 yevrodan - 10 000 000 yevrogacha	1,25 %
10 000 000 yevrodan yuqori	1,5 %

²⁴ Майбуров И.А., Цоколовская А.М. Некоторые постулаты оптимального налогообложения труда. <https://elibrary.ru/download/elibrary>.

²⁵ Usmanova M.S. “Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortishni takomillashtirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent. BMA, 2011. 39-b.

²⁶ <https://smartasset.com/taxes/current-federal-income-tax-brackets>

²⁷ Маликова Ю.В. “Зарубежный опыт подоходного налогообложения физических лиц и возможность его имплементации в России” статья Налоги и налогообложение, 2018 – 10. с. 55.

Fikrimizcha aholi daromadlari tengsizligini tartibga solib turish uchun Fransiya tajribasini inobatga olgan holda O‘zbekistonda ham yuqori daromad manbaiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni alohida daromad solig‘iga tortish tartibini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Malayziyada jismoniy shaxslarning daromadiga nisbatan deklaratsiya usulini qo‘llashda O‘zbekistonda bevosita amal qilmaydigan chegirmalar ya’ni adabiyotlar va kompyuter sotib olish, farzandlar uchun chegirma, sport uchun xarajatlar, tibbiyot xarajati inobatga olinadi (7-jadval).

7-jadval

Malayziyada deklaratsiya asosida chegiriladigan daromadlar miqdori²⁸
(ringgit)

№	Chegirmalar turi	Chegirma miqdori	№	Chegirmalar turi	Chegirma miqdori
1.	Tibbiyot xarajati (tibbiy ko‘rikdan o‘tish)	6000	14.	Internetga obuna uchun qilingan xarajat	2500
2.	Ota-ona uchun tibbiy xarajatlar	5000	15.	Uy krediti uchun foizlar	9000
3.	Faqat bitta ota yoki ona uchun tibbiy xarajatga	1500 dan		Farzandlar uchun chegirma:	
4.	Yolg‘iz nogiron (qo‘shimcha)	6000	16.	Har bir bola uchun	2000
5.	Alimentlar	4000	17.	Maktabgacha ta’lim uchun	1000
6.	Nogiron er/xotin	3500	18.	Maktabda o‘qish	1000
7.	Yordamchi uskunalar (nogiron uchun) sotib olish uchun	6000	19.	Repetiter uchun (sertifikat olish uchun kurs)	2000
8.	Emizish uskunolari sotib olish uchun	1000	20.	Institutda o‘qish	6000
9.	Og‘ir kasallik uchun xarajat	6000	21.	Har bir nogiron bola uchun	6000
10.	Ta’lim uchun to‘lov (alohida)	7000	22.	Ijtimoiy himoya tashkilotlariga xarajat	250
11.	Adabiyot uchun xarajatlar (kitoblar, gazetalar, va b.)	2500	23.	Institutda ta’lim olayotgan har bir nogiron bola uchun	8000
12.	Sport uchun xarajatlar	2500	24.	Hayot sug‘urtasi	6 000
13.	Shaxsiy kompyuter, telefon yoki planshet sotib olish uchun				2500

Malayziya va boshqa xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining 378-moddasiga:

“bolalar adabiyoti va badiiy adabiyotlar, shuningdek, maktab darsliklarini sotib oladigan jismoniy shaxslar ushbu adabiyotlarni sotib olishga yo‘naltiriladigan summalarini;

dori-darmon vositalarini sotib oluvchi jismoniy shaxslarning ushbu dori-darmon vositalarini sotib olishga yo‘naltiriladigan daromadlarini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bazasidan chegirish tarzidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

Bunda jismoniy shaxslar sotib olgan mahsulotlari summalarini asoslantiruvchi hujjatlar (kassa cheklari) asosida soliq idorasiga taqdim etgan taqdirda deklaratsiya asosida daromad solig‘i summasini qaytarish mexanizmini yo‘lga qo‘yish o‘zining ijobiy natijasini beradi degan fikrdamiz”.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra jismoniy shaxslarning ko‘chmas mulklarini ijaraga berishning eng kam me‘yorlari:

²⁸ <https://www.imoney.my/articles/income-tax-guide-malaysia/tax-reliefs-for-year-of-assessment-2016>

- Toshkent shahri;
- viloyat markazidagi shaharlar;
- boshqa aholi punktlari uchun har xil qiymatda belgilangan.

Biroq, bugungi kunda viloyat markazi bo‘lmagan shaharlar (*Olmaliq, Shahrisabz, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, Kattaqo‘rg‘on, va h.k*)da turar joyni ijaraga berish 5 900 so‘m va noturar mulkni ijaraga berish 11 800 so‘m miqdorda belgilangan. Ya’ni, tumanning chekka hududi hamda viloyat markazi bo‘lmagan shaharlarda ijaraga berishning eng kam miqdorlari bir xil. Ushbu shaharlar uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tumanlar uchun belgilangan minimal miqdorlardan 1,5 barobar oshirilgan miqdorda belgilash maqsadga muvofiq.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga tayangan holda fikrimizni quyidagi 8-jadval ma’lumotlari orqali asoslashga harakat qildik.

8-jadval.

Viloyat markazi hisoblanmaydigan shaharlarda soliq stavkasi o‘zgartirilishi natijasida budjetga qo‘shimcha undiriladigan mablag‘lar tahlili²⁹, (mln.so‘mda)

№	Shaharlar kesimida	2025 yil		2026 yil taklif prognozi	
		Ijara to‘lovi miqdori	Daromad solig‘i	Ijara to‘lovi miqdori	Daromad solig‘i
1	Xonobod sh.	3 855,0	462,6	5782,4	693,9
2	Kogon sh.	14 529,3	1 743,5	21794,0	2615,3
3	Shahrisabz sh.	13 964,1	1 675,7	20946,1	2513,5
4	Zarafshon sh.	20 885,9	2 506,3	31328,9	3759,5
5	Kattaqo‘rg‘on sh.	29 023,2	3 482,8	43534,9	5224,2
6	Yangiyer sh.	20 226,1	2 427,1	30339,2	3640,7
7	Shirin sh.	10 947,9	1 313,7	16421,8	1970,6
8	Angren sh.	21 230,5	2 547,7	31845,7	3821,5
9	Bekobod sh.	11 568,0	1 388,2	17352,0	2082,2
10	Olmaliq sh.	35 433,3	4 252,0	53149,9	6378,0
11	Ohangaron sh.	28 484,5	3 418,1	42726,8	5127,2
12	Chirchiq sh.	29 120,5	3 494,5	43680,7	5241,7
13	Yangiyo‘l sh.	18 018,3	2 162,2	27027,4	3243,3
14	Marg‘ilon sh.	37 687,5	4 522,5	56531,2	6783,7
15	Quvasoy sh.	4 317,2	518,1	6475,7	777,1
16	Qo‘qon sh.	46 083,5	5 530,0	69125,3	8295,0
17	Xiva sh.	6 443,2	773,2	9664,8	1159,8
Jami		351 817,8	42 218,1	527 726,6	63 327,2

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklifga muvofiq hisob-kitoblarga ko‘ra yuqoridagi 8-jadval ma’lumotlariga asosan, 2026 yilda 2025 yildagiga nisbatan 21 109,1 mln.so‘m ko‘proq mablag‘larni budjetga qo‘shimcha undirilishiga erishish mumkin bo‘ladi.


²⁹ Dissertant hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari tarkibiga kiruvchi konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari boʻyicha tadqiqotlar olib borildi. Konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslar ushbu faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya olishlari shart va belgilangan tartibda Davlat xizmatlari markazi orqali yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat roʻyxatidan oʻtib faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun qatʼiy belgilangan soliq boʻyicha soliq imtiyozlari bekor qilinib, 2020-yil 1-apreldan eʼtiboran daromad soligʻini toʻlash meʼyori belgilandi. Bunda konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan daromad soligʻini toʻlash tartibi tanlanadi. Yaʼni qatʼiy belgilangan miqdordagi daromad soligʻi yoki deklaratsiya asosidagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi toʻlanishi mumkin.

Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish boʻyicha mamlakatimiz Prezidentining alohida Farmonlari qabul qilinib, ushbu hujjatga asosan ushbu faoliyat subyektlari faoliyatini tartibga solish boʻyicha koʻplab ijobiy masalalarga eʼtibor qaratildi³⁰.

Oʻzbekistonda konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslar va ular tomonida toʻlangan soliqlar tarkibining oʻzgarish dinamikasini quyidagi 4-rasm maʼlumotlari orqali koʻrishimiz mumkin.



4-rasm. Konsert-tomosha faoliyati bilan shugʻullanuvchi jismoniy shaxslar va ular tomonida toʻlangan soliqlar tarkibi³¹.

³⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-iyuldagi “Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslardan davlat bojini undirish hamda ularni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PF-168-son farmoni.

³¹ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi 4-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar soni 2016-yildan 2019-yilga qadar o'sish tendensiyasiga ega 2020 va 2021-yillarda esa kamayish kuzatilgan. Ushbu holatni 2020-yildan global miqyosdagi pandemiya sharoiti bilan izohlash mumkin. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan to'langan ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov) summasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yillar davomida bazaviy hisoblash miqdori (eng kam ish haqi) va faoliyat subyektlari soni bir-biriga to'g'ri proporsional ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'langan daromad solig'i summasi faqatgina 2021-yilda 0,3 mlrd.so'mni tashkil etgan. 2021-yilga qadar ushbu faoliyat subyektlari tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyoz belgilangan.

Umuman olganda, konsert-tomosha faoliyatining dastlab nisbatan norasmiy va imtiyozli soha bo'lganini, keyingi yillarda esa uni soliq tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish jarayoni amalga oshirilganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2021 yildan boshlab jismoniy shaxslar daromad solig'ining joriy etilishi ushbu sohada fiskal shaffoflikni oshirish, byudjet tushumlarini ko'paytirish va soliq adolatini ta'minlash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv nafaqat davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlashga, balki konsert-tomosha faoliyatini qonuniy iqtisodiy muomalaga jalb etish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar va tavsiyalarni ishlab chiqishga erishildi:

1. Jismoniy shaxslar daromadlari har xil manbalardan tashkil topishi, ularning daromadlariga nisbatan deklaratsiya asosida soliqqa tortish mexanizmining qo'llanilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlash zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki aholi turmush darajasini, daromad to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim;

2. Olib borilgan hisob-kitoblarni turli masshtablar - proporsional va progressiv soliqqa tortishning solishtirma ta'sirlarini aniqlashtirish uchun iloji boricha aniqroq amalga oshirishdir. Umuman olganda, aholi daromadlarini proporsional stavkada soliqqa tortish bir tomonlama davlat budjetini to'ldirish bilan cheklanadi, biroq aholi daromadlari tengsizligi bilan bog'liq muammolarini hal qilmaydi;

3. Soliq solishning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalarini nazarda tutadigan bo'lsak, fikrimizcha, Germaniya, Fransiya, AQSh, Hindiston va boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimum belgilash maqsadga muvofiq. Daromad solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan minimumning belgilanishi mamlakat miqyosida kam daromad oluvchi ya'ni iqtisodiy holati past bo'lgan jismoniy shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda aholining daromadlari tengsizligini

kamaytirish uchun xizmat qiladi.

4. Daromadlari tengsizligini tartibga solib turish uchun xorijiy mamlakatlar jumladan, Fransiya tajribasini inobatga olgan holda O'zbekistonda ham yuqori daromad manbaiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar (boylar)ni alohida daromad solig'iga tortish tartibini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Malayziya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining 378-moddasiga:

- «bolalar adabiyoti va badiiy adabiyotlar, shuningdek, maktab darsliklarini sotib oladigan jismoniy shaxslar ushbu adabiyotlarni sotib olishga yo'naltiriladigan summalarni;

- dori-darmon vositalarini sotib oluvchi jismoniy shaxslarning ushbu dori-darmon vositalarini sotib olishga yo'naltiriladigan daromadlarini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bazasidan chegirish tarzidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

6. Amalga oshirilgan ekonometrik tahlillarimizga ko'ra soliq stavkasining proporsionalligi aholi daromadining tabaqalanishiga kuchliroq ta'sir qilishi o'z isbotini topgan. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini proporsional stavkada hisoblanishi natijasida aholini daromadlarini tabaqalanishi ortib orishiga olib keladi. Xususan, aholini daromadi darajasiga qarab soliq stavkalarini belgilash va soliq tushumini ortishiga olib kelishi ekonometrik tahlillar natijasida o'z tasdig'ini topdi.

7. Budget daromadlariga qo'shimcha manbalarni shakllantirish hamda soliqqa tortishning adolatlilikini ta'minlash maqsadida, mulklarni ijaraga berishning eng kam meyorlariga alohida, boshqa shaharlar (viloyat markazi hisoblanmagan) uchun minimal miqdorlarni masalan, tumanlar uchun belgilangan minimal miqdorlardan 1,5 barobar oshirilgan miqdorda belgilash tavsiya etiladi.

8. Konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni to'y, yubiley hamda boshqa marosim va tantanalarga buyurtmalar berishning elektron tizimini yo'lga qo'yish, soddalashtirilgan tartibda soliq bazasini aniqlash maqsadida Toshkent shahri va viloyatlar kesimida ularning toifalaridan kelib chiqib soliq solinadigan daromadning minimal miqdorlarini belgilash, shuningdek nazorat mexanizmini alohida tashkilot orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi takliflar va tavsiyalarning amaliyotga qo'llanishi natijasida mamlakatimizda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmining yanada takomillashtirilishiga erishish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.30.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ИБРАГИМОВ ЗАФАР ИСМАИЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОХОДОВ
ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.07 - «Финансы, денежное обращение и кредит»

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

город Ташкент – 2026 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.3.PhD/Iqt4435.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Бозоров Акмал Амонович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты	Бурханов Ақтам Усманович доктор экономических наук, профессор
	Пардаев Умид Уралович доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.130.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском международном университете. «06» 06 2026 года в 10⁰⁰ Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55, факс: (99895) 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирована под No 35). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7 Тел.: (99895) 131-55-55, факс: (99895) 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz

Автореферат диссертации разослан «15» 05 2026 года.
(реестр протокола рассылки №10 от «04» 04 2026 г.)



Н.Х. Жумаев

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Н.Х. Абдурахмонов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов

председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В странах мира возрастает значение обеспечения финансовой устойчивости государственного бюджета различных уровней как одного из основных факторов конкурентоспособности национальной экономики. Во многих развитых странах источниками доходов государственного бюджета являются налоги на доходы и недвижимость физических лиц. В частности, «доля налога на доходы физических лиц в структуре доходов бюджета составляет 35,9 процента в США, 35,1 процента в Германии, 30,4 процента в Российской Федерации, 25,8 процента в Великобритании, 6,9 процента в Китае»³². В структуре доходов бюджета важное значение имеет совершенствование влияния на развитие экономики путем регулирования стабильности, собираемости и взимания в бюджет подоходного налога с физических лиц.

В современных условиях глобализации в развитых странах особое внимание уделяется упрощению механизма налогообложения налогооблагаемых доходов физических лиц, снижению ставки подоходного налога, увеличению реальных доходов населения за счет применения необлагаемого минимума, а также определению рыночной стоимости имущества и координации налогооблагаемой базы при налогообложении недвижимого имущества физических лиц. В настоящее время, когда мировая экономика выходит на новый уровень и масштабы цифровой экономики расширяются, проводятся научные исследования по таким направлениям, как создание благоприятной налоговой среды, оптимизация налогового бремени, упрощение налогообложения и повышение прозрачности налогового администрирования, стимулирование инновационной деятельности, обеспечение экономического роста путем организации эффективной налогово-бюджетной политики и полного ведения электронного учета налогооблагаемых доходов физических лиц, а также использование эффективных налоговых режимов в развитии деятельности физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью.

В последние годы в Узбекистане также осуществляются широкомасштабные реформы, направленные на сокращение доли «теневой экономики» путём совершенствования налоговой политики. В частности, реформы включают в себя переход к электронному учёту заработной платы и доходов, чтобы «граждане были заинтересованы не в уклонении от уплаты налогов, а в их своевременной уплате»³³. На сегодняшний день в Узбекистане около 15,1 миллиона человек или более 42,1 процента населения являются экономически активным населением, из которых более 5,1 миллиона (33,8

³² Источник: Дементьева М.А., Захарова А.В., Кирова Е.А., 2019. Опыт налогообложения недвижимого имущества физических лиц в зарубежных странах и его применение в России. Статья доступна по лицензии Creative Commons «Attribution» («Атрибуция») 4.0. всемирная (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>); http://www.vectoreconomy.ru/images/publications/2017/10/taxes/Shobey_Kovarnina.pdf.

³³ Мирзиёев Ш.М. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. – Ташкент: ИПТД "Узбекистан," 2019. С. 17.

процента) являются плательщиками подоходного налога. Эти цифры означают, что необходимо уделять внимание таким направлениям, как обеспечение занятости населения, ведение их полного и своевременного учета, в результате повышение реальных доходов и покупательной способности населения, дальнейшее сокращение числа малообеспеченных семей и уровня дифференциации доходов населения. Кроме того, отсутствие надлежащих методов налогообложения доходов физических лиц, занимающихся предпринимательской деятельностью, наличие недопонимания в отношении налогообложения имущественных доходов физических лиц, а также рост налоговой задолженности, неравномерное распределение налогового бремени между социальными слоями населения создают необходимость совершенствования налогообложения доходов физических лиц.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030»», от 29 июня 2018 года № УП-5468 «О Концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан», от 18 июля 2017 года № ПФ-5116 «О мерах по коренному совершенствованию налогового администрирования, повышению собираемости налогов и других обязательных платежей», в Законах Республики Узбекистан от 24 декабря 2024 года № ЗРУ-1011 «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2025 год», от 25 декабря 2025 года № ЗРУ-1105 «О Государственном бюджете Республики Узбекистан на 2026 год», от 28 декабря 2023 года № ЗРУ-891, от 26 июля 2022 года № ЗРУ-785, от 29 декабря 2021 года № ЗРУ-741, от 21 апреля 2021 года № ЗРУ-683, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Размышления по вопросам налогообложения доходов физических лиц освещены в научных трудах зарубежных экономистов А.Смита, Д.Рикардо, Г.Бюэлера, Л.Харли, А.Вальтера, Ф.Рамсея, Дж.Миррлиса, Э.Шешинского, Э.Садки, Н.Стерна, Дж.Сиде, Р.Бурдеску, М.Аллингхэма, А.Сандмо, М.Норрегарда, Х.Блохлигера, Э.Слакка, А.Агаповой, М.Романовского, О.Врублевской, Б.Сабанти, В.Лапина, С.Павленко, Г.Морозовой, А.Сбежнева, А.Галяутдиновой, О.Савиной, Е.Эрмасовой, О.Изотовой, А.Аксеновой.³⁴

³⁴ Smit A. Исследование о природе и причинах богатство народов /Антология экономической классик. Предисл. И.Столярова. – М.: МП “ЭКОНОВ”, “КЛЮЧ”, 1993. -588 с., Рикардо Д. Сочинения. Т1. Начало политэкономии и налогового обложения. Пер. с англ. –М.: Госполитиздат. 1955. – 186 с., “Taxation and the minimum of subsistence” Source:

